

## INFORMATSION DASTURNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI

Xaynazarova Dilafruz Sa'dullayevna

**Annotatsiya:** Insonni axborot jamiyatida yashashga axborot orqali tayyorlash muammosi an'anaviy ravishda xalqaro hamjamiyat va eng avvalo, xalqaro tashkilotlar diqqat markazida turadi. YUNESKO media va axborot savodxonligi rivojlanishiga ko'maklashadi va uni "inklyuziv, ochiq, ishtirokchi va plyuralistik bilimlar jamiyatini barpo etish uchun zamin" deb hisoblaydi<sup>1</sup>.

**Kalit so'zlar:** Informatsion dastur, media, MAC, jurnalistika, metod, xolislik.

### KIRISH

Bugungi axborot bilan to'yingan jamiyat va chegarasiz axborot alMACHinuvi sharoitida jurnalistlarning xolisligi va mediasavodxonligi masalasi o'ta muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu holda yangiliklar bo'limi jurnalistlari va tahririyatlariga faktchekingning tekshirilgan va yangi samarali usullaridan, shuningdek, feyk yangiliklarini identifikatsiya qilish vositalaridan foydalangan holda axborotni tekshirish ishlarini muntazam ravishda takomillashtirish talab qilinadi. Bunda ushbu vazifani bajarish uchun jurnalistlar jamoa bo'lib ishlashi muhim ahamiyatga ega.

XXI asrning birinchi o'n yilligi uchun YUNESKO va IFLA mediasavodxonlik va axborot savodxonligi integratsiyasi konsepsiyasini tashkil etuvchi yangi tashabbuslarni belgilab berdi. Ushbu g'oya quyidagi xalqaro hujjatlarda o'z ifodasini topgan:

Media va axborot savodxonligi to'g'risidagi Fes Deklaratsiyasi (Fes shahri, Marokash, 2011 yil 15–17 iyun); IFLAning media va axborot savodxonligi bo'yicha tavsiyalari (Gaaga shahri, Niderlandiya, 2011 yil 7 dekabr; Rossiya, 2012 yil 24–28 iyun) va bir qator boshqa hujjatlarda.

Ularning imzolanishi jahon hamjamiyati ta'lim, tadqiqotlardagi xatti-ha- rakatlarni birlashtirish, ushbu yo'nalishlarni integratsiyalash uchun mazkur masalani hukumat darajasida kun tartibiga olib chiqishga tayyorligidan dalolat beradi.

### ADABIYOTLAR SHARHI

Agar ilgari dunyo manzarasi ommaviy axborot vositalari (OAV) tomonidan ko'rsatilgan bo'lsa, bugungi kunda axborot kun tartibini aynan bir mavzuga oid axborotning oluvchisi, tarqatuvchisi va yaratuvchisi bo'lgani holda har qanday odam belgilashi mumkin. Bu esa yana bir bor yangiliklarni to'plash va tarqatish bo'yicha vazifalarni bajarishda jurnalistlar savodxonligi masalasini keskinlashtiradi. Aynan shu sababli OAV bo'yicha bir qator loyihalarni amalga oshirishda bevosita ushbu yo'nalishda jurnalistlarni o'qitishga katta e'tibor qaratilgan.

### TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

«Inson media demak va barcha boshqa medialar uni teshib o'tadi» — mediata'lim tadqiqotchilari MAC masalasini shunday ta'riflaydi. Zero, bugungi kunda sayyora- mizda yashaydigan har bir insonning o'zi axborot tashuvchisi va tarqatuvchisidir. Barcha orasida MACni kuchaytirishga turlicha yondashuvlar va usullarning kengayishi munosabati bilan mediata'limga ekologik yondashuv masalasi kun tartibiga chiqadi. Bu esa u yerda axborot individ mavjudligi uchun resurs bo'lib xizmat qiladi va insonning o'zi kommunikatsion universumning bir qismi hisoblanadigan kommunikativ zanjirda qanday o'rin egallashini tushunishni talab qiladi<sup>2</sup>.

MACning YUNESKO tomonidan ilgari surilgan 5 tamoyili

<sup>1</sup> Медиа и информационная грамотность в обществах знания / Сост. Кузьмин Е. И., Парша-кова А. В. — М.: МЦБС, 2013.. — С. 14.

<sup>2</sup> Медиаобразование 2015: Сб. трудов Всероссийского форума конференций "Медиаобразование 2015. Медиа-информационная грамотность для всех", Москва, 11 декабря 2015 г. /Под редакцией И. В. Жилавской. — М.: МПГУ, 2015. — 236 с.

*1-tamoyil.* Axborot, kommunikatsiya, kutubxona, media, texnologiyalar, internet jamiyat tomonidan tanqidiy foydalanilishi kerak. Ular maqomi bo'yicha teng va ushbu manbalarning birontasini boshqalariga nisbatan ahamiyatliroq deb qaraMAClik kerak.

Bu o'rinda ikkita muhim so'zga e'tibor qaratmoqchimiz: "tanqidiy" va "maqomiga ko'ra teng". Birinchi tamoyilga ko'ra, axborot iste'molchilarida va uni yaratuvchilarda o'zlari olayotgan ma'lumotlarga tanqidiy munosabatda bo'lish qanchalik ahamiyatli ekanligi qayd etiladi. Xususan, tahlil qilish va baholashga moyil kishi axborot xabardorligi uchun eng haqqoniy, eng xolis ma'lumotlarni izlaydi.

*2-tamoyil.* Har bir fuqaro axborot/bilim yaratuvchisidir. Har kim axborot/ bilimdan foydalanish va o'zini ifodalash huquqiga ega. Media va axborot savodxonligi erkaklar uchun ham, xotin-qizlar uchun ham inson huquqlari bilan uzviy bog'liq bo'lishi kerak.

Internet va zamonaviy media sharoitida har qanday kishi axborot muallifi/hammuallifi va tarqatuvchisi bo'lishi mumkin. Bu turdagi faoliyatni amalga oshirish uchun jahon hamjamiyati tomonidan barchaga axborot berish vositalaridan foydalanish bo'yicha teng imkoniyat yaratish usullari ishlab chiqilmoqda.

*3-tamoyil.* Axborot, bilim va xabarlar har doim ham betaraf, mustaqil yoki xolis bo'lavermaydi. MACning har qanday konseptualizatsiyasi, undan foydalanish va qo'llash ushbu tasdiqning barcha fuqarolar uchun shaffof va tushunarli bo'lishini ta'minlashi kerak.

Faktlarni ajratib olish va tanlashni amalga oshirar ekanmiz, biz axborotga va uning filtratsiyasiga ta'sir ko'rsata boshlaymiz. Bu har doim ham manipulyatsiya bilan bog'liq bo'lmaydi, balki urg'u berish uchun biz birinchi darajali va ikkinchi darajali ma'lumotlarni ajratamiz. Ayni paytda, bu dunyoni o'zimizning nuqtai nazarimizdan ko'rsatish yo'lidagi qadam hisoblanadi. Ushbu tamoyil, manbalar bilan ishlashda ham va umuman media bilan ishlashda ham bunday vaziyat kuzatilishi mumkinligini ta'kidlaydi, ushbu faktni albatta hisobga olish kerak.

*4-tamoyil.* Har bir fuqaro, bunday intilishni namoyish etMACa-da, yangi ma'lumotlar, bilim va xabarlarini olish va ularni tushunishni, boshqalar bilan muloqot qilish imkoniyatiga ega bo'lishni istaydi. Ularning bunday huquqi hech qachon buzilMACligi kerak.

Ushbu tamoyil, shuningdek, deyarli barcha mamlakatlarning qonunchiligida mustahkamlangan. Ammo AKT rivojlanishi tufayli bu huquq shu bilan birga texnologiyalarga ham tegishli bo'lib qoldi, texnologik imkoniyatlar kommunikatsiya usullarini o'zgartirdi, shu munosabat bilan ushbu konstitutsiyaviy huquq hatto hozirgi axborot alMAChish jarayoniga elektron formatga raqamli o'tish sharoitida ham buzilMACligi kerak.

*5-tamoyil.* Media va axborot savodxonligini birdaniga o'zlashtirib bo'lmaydi. Bu — doimiy va dinamik tajriba va jarayon. U o'z ichiga axborotdan foydalanish, uni yaratish va uzatish, media va texnologik kontent bo'yicha bilim, ko'nikma va qarashlarni qamrab olganda yakunlangan, deb hisoblanishi mumkin.

Bugungi kunda MAC asta-sekin, har bir shaxsning shakllanishiga parallel tarzda shakllantiriladigan kompetensiyaga kiritiladi. Bugungi kunda MAC maktabgacha ta'limdan boshlab dolzarb ahamiyatga ega ekanligi haqida so'z ketar ekan, ekspertlar, bugungi kunda axborot hammani, barcha joyda va har doim o'rab olganiga urg'u beradi. Har bir uyda, har bir oilada mavjud bo'lgan mediareсурslar hisoblab chiqilsa, MACning shakllantirilishi ovqatlanish, shaxsiy gigiena va h.k. lar kabi birinchi darajali ehtiyojga aylangani ma'lum bo'ladi.

## XULOSA VA MUNOZARA

Shu tariqa, mediaiste'mol OAV bilan ongli munosabatlar boshlanishini anglatadi, buning yakuniy natijasi esa mediasavodxonlik bo'ladi. Ushbu jarayonda inson axborotga aloqador bo'ladi va unga ta'sir ko'rsatadi.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Muratova N. Internet-jurnalistika v Uzbekistane. Osobennosti on-line izdaniy i ix funkcionirovanie v usloviyax globalnogo informatsionnogo rьnka. /Avtoreferat diss. NUUz, 2011. Onlayn versiya: <http://site.ziyonet.uz/ru/>
2. Media- i informatsionnaya gramotnost v obщestvax znaniya / Sost. Kuzmin Ye. I., Parsha-kova A. V. — M.: MSBS, 2013.. — S. 14.

3. Mediaobrazovanie 2015: Sb. trudov Vserossiyskogo foruma konferensiy “Mediaobra- zovanie 2015. Media-informatsionnaya gramotnost dlya vsekh”, Moskva, 11 dekabrya 2015 g. / Pod redaksiey I. V. Jilavskoy. — M.: MPGU, 2015. — 236 s.
4. Vasileva L. A. Delaem novosti! — M.: Aspekt Press, 2003. — 188 s.
5. Chto takoe digital-agressiya. Ekspert MediaToolbox.ru Maksim Kornev, <http://sdelano.media/project/stoptrolls/>
6. <https://www.poynter.org/channels/fact-checking>